



ALISHER NAVOIY “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA QO‘LLANGAN LINGVISTIK VA BADIY METAFORALARNING INGLIZ TILIDA QAYTA IFODALANISHI.

Fazildinova Sevara Nematovna

FarDU, mustaqil izlanuvchisi,

CAMU, xalqaro tibbiyot universiteti o‘qituvchisi

+998915410377 sevarafazildinova6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19201657>

Annotatsiya: Ushbu maqolada doston matnida qo‘llangan metaforalarning turlari, ularning semantik xususiyatlari, ingliz tiliga tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda samarali tarjima strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, metaforalarning badiiy-estetik yukini saqlagan holda boshqa tilga ko‘chirishning lingvistik asoslari va amaliy yechimlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: metafora, lingvistik metafora, badiiy metafora, tarjima strategiyalari, semantik xususiyatlar, poetik obraz, Alisher Navoiy, “Farhod va Shirin”, badiiy-estetik yuk

Аннотация: В данной статье анализируются виды метафор, использованных в тексте поэмы, их семантические особенности, проблемы, возникающие при переводе на английский язык, а также эффективные стратегии передачи метафор. Кроме того, рассматриваются лингвистические основы и практические решения, позволяющие сохранить художественно-эстетическую нагрузку метафор при их переносе на другой язык.

Ключевые слова : метафора, лингвистическая метафора, художественная метафора, стратегии перевода, семантические особенности, поэтический образ, Алишер Навои, «Фархад и Ширин», художественно-эстетическая нагрузка.

Abstract: This article examines the types of metaphors used in the text of the poem, their semantic features, the challenges that arise during translation into English, and effective strategies for rendering these metaphors. The study also explores the linguistic foundations and practical solutions for preserving the artistic and aesthetic value of metaphors when transferring them into another language.

Keywords: metaphor, linguistic metaphor, artistic metaphor, translation strategies, semantic features, poetic imagery, Alisher Navoi, “Farhod and Shirin”, aesthetic value

Alisher Navoiy ijodi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki butun turkiy madaniyatning bebaho ma‘naviy merosi sifatida alohida o‘rin tutadi. Uning



“Xamsa” turkumiga kiruvchi “Farhod va Shirin” dostoni badiiy tasvir vositalarining boyligi, obrazlar tizimining teranligi va tilning nozik poetik imkoniyatlaridan foydalanish mahorati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, doston matnida uchraydigan lingvistik va badiiy metaforalar asarning estetik qiymatini oshiradi, qahramonlarning ruhiy holatini ochishda, voqealar dinamikasini kuchaytirishda muhim vazifa bajaradi.

Bugungi globallashuv jarayonida Navoiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini boshqa madaniy kontekstda qayta ifodalash masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Metaforalar tarjimasini ayniqsa murakkab jarayon bo‘lib, tarjimon nafaqat til birliklarini, balki ularning ortidagi madaniy, tarixiy va poetik qatlamlarni ham to‘g‘ri anglab, mos ekvivalent yaratishi zarur. Shu bois “Farhod va Shirin” dostonidagi lingvistik va badiiy metaforalarning ingliz tilida qayta ifodalanishi masalasi tarjimashunoslik, stilistika va kognitiv lingvistika kesishgan nuqtada o‘rganilishi lozim bo‘lgan ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini lingvistik va badiiy metaforalarni o‘rgangan yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi. Xususan, Sh. Balli metaforani tilning tabiiy rivojlanishidan kelib chiqadigan semantik kengayish sifatida talqin qilgan bo‘lsa, P.Nyumark uning kognitiv asoslarini, ya‘ni metaforaning inson tafakkuridagi konseptual xarakterini chuqur tahlil qilgan. O‘zbek tilshunosligi doirasida M.Mukarramov va M.Mirtojiyev kabi tadqiqotchilar metaforalarni lingvistik, turg‘un hamda badiiy va muallif metaforalari sifatida tasniflab, ularning poetik matndagi funksional yukini aniqlashga alohida e‘tibor qaratgan. Ushbu ilmiy yondashuvlar maqolada “Farhod va Shirin” dostonidagi metaforalarni tahlil qilishda asosiy metod sifatida qo‘llanadi: avvalo metaforalar lingvistik tuzilishi va semantik xususiyatlari aniqlanadi, so‘ng ularning badiiy-estetik vazifalari o‘rganiladi, va nihoyat ingliz tiliga tarjima jarayonida qo‘llanadigan strategiyalar (ekvivalent almashtirish, semantik kengaytirish, poetik kompensatsiya va boshqalar) baholanadi. Shu tariqa, tadqiqot nazariy manbalar, matn tahlili va tarjimashunoslik yondashuvlarining uyg‘unlashuvi asosida amalga oshiriladi.

Natijalar

Lingvistik va badiiy metaforalarni farqlash Sh.Balli tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga asoslanadi. U til metaforalarini badiiy metaforalarga qarshi qo‘yib, ularni umumiy, badiiy metaforalar esa, individual xususiy tabiatga egaligini qayd etadi [4;16-b.].



M.Mukarramov ham lingvistik va badiiy metaforalarning farqli jihatlarini tahlil qilib, ularning birinchisi tilga, ikkinchisi esa nutqqa xos ekanligini qayd etadi. Lingvistik metaforalar milliy tilning leksik tizimida qat'iy o'rnashib qolgan va lug'atlarda qayd etiladigan ko'chma ma'noli so'zlar bo'lib, ularning aksariyati polisemantik xarakterga ega. Masalan, *stolning oyog'i, ko'chaning boshi, shishaning og'zi, gapni gupirtirmoq, ishning ko'zi* va shu kabilarda qo'llangan *oyog'i, boshi, og'zi, gupirtirmoq, ko'zi* so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan va ikkinchi bir predmeni nomlash uchun ishlatilgan. M.Mukarramov sanab o'tgan shu kabi ko'chma ma'noli so'zlar P.Nyumarkning o'lik (dead) metaforalari xususiyatlari bilan deyarli bir turga mansubdir. Masalan, *stolning oyog'i – leg of the table, tog' etagi – foot of the mountain* kabi. P.Nyumarkning ta'kidlashicha, o'lik metaforalarni tarjima qilish qiyinchilik tug'dirmaydi aksincha, tarjimon oldida ularning bir nechta variantlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, *source field* birikmasini *manba maydoni* yoki *manba sohasi* deb tarjima qilish mumkin. Demak, *stolning oyog'i* va *tog' etagi* ingliz tilida ham universal xususiyatga egaligi sababli, hatto ular *leg of the table, foot of the mountain* kabi so'zma-so'z tarjima qilinganda ham stilistik hamda semantik jihatdan to'liq moslikka erishish mumkin. Muallif metaforalarni esa ular madaniy elementlarga boy bo'lganligi sababli asl holicha tarjima qilish zarur. Ammo, muallif metaforalari tarjima tili sohiblari uchun mavhum bo'lsa uni ba'zan izohlash yoki qisqartirish yo'li bilan ham tarjima qilish mumkin. Masalan, Evelyn Waughning "*Oxford, a place in Lyonesse*" jumlasini "*Oksford – uzoq, yo'qolgan afsonaviy hududning bir bo'lagi*" yoki "*Oksford – Atlantidaning bir bo'lagi*" deb tarjima qilinishi mumkin [13;104-b.].

M.Mukarramov badiiy metaforalarni nutqiy qo'llashga xos bo'lib, milliy tilning lug'atlarida berilmaydi balki, biror muallifning individual uslubiga xosligi bilan ajralib turishini qayd etadi. Olimning ta'kidlashicha, ko'chma ma'noda qo'llangan so'z faqatgina ma'lum bir kontekstdagina reallashadi. Badiiy metaforalarda narsa va hodisalarning anglab olish qiyin bo'lgan belgilari qiyoslanadi hamda muallifning ijobiy yoki salbiy munosabati shakllanadi [12;13-b.].

Badiiy metaforalar okkazional xususiyatga egaligi sababli ularni "authorial metaphors" (muallif metaforalari) deb ham ataladi. Ular vaqtinchalikligi, matnga bog'liqligi hamda ijodiy-kreativligi jihatlarini bilan tilshunoslik metaforalaridan ajralib turadi [3;47-b.].

Tahlillar



Badiiy metaforalar adabiyot, san'at va nutq madaniyatida badiiy ifodani yanada boyitish uchun xizmat qiladi. Bu usul orqali muallif yoki notiq o'z hissiyotlari, dunyoqarashi va hayot tajribasini o'ziga xos tarzda ifoda etadi. Alisher Navoiy ham bu turdagi metaforalardan dostonida keng foydalanib, o'zining san'ati va ifoda uslubini boyitgan.

Tadqiqotimiz obyekti "Farhod va Shirin" dostonidagi metaforalarni qo'llanishiga ko'ra M.Mukarramov, Sh.Usmonova, P.Nyumark, Sh.Balli hamda M.Bleklarning tasniflariga asoslanib, quyidagi turga bo'lib oldik:

- 1) lingvistik yoki umumxalq iste'molidagi metaforalar;
- 2) badiiy yoki muallif metaforalari.

Quyida "Farhod va Shirin" dostonidan ushbu turdagi metaforalarga misollar keltiramiz.

"Ko'nglingdan agar garddan qayg'u bo'ladigan bo'lsa, ko'z yoshlarim bilan yer yuziga suvlar sepsam" hamda *"Ko'zlaring yuzim hajrida yosh to'kib turganda, quyosh yuziga qaraging keladimi?"* (Farhod va Shirin, 188-b.) jumlaridagi *yer yuzi, quyosh yuzi* birikmalari tarkibidagi *yuz* so'zi ko'chma ma'noda qo'llanib, birinchisi yerning ustki qismini, ikkinchisi esa quyoshning ko'rinib turadigan qismini ifodalab keladi.

Turg'un metaforaga ko'plab adabiyotlarda allaqachon tasvir obyekti sifatida qo'llanib kelinadigan "sarv" so'zi qatnashgan jumlaning misol tariqasida keltiramiz. *"U barno yigit emas, balki davrondan xazon mashaqqatini ko'rgan bo'ston sarvi edi"* (Farhod va Shirin, 118-b.) jumlasini olish mumkin. Ushbu jumlada *sarv* so'zi turg'un metafora sifatida qo'llangan va u orqali Farhodning qaddi-qomati hamda navqironligi majoziy tarzda tasvirlangan. *Sarv – f. konus shaklli, ignabargli daraxt; ko'chma poet. – xushqomat, qaddi raso* (O'TIL; 447-b.)

Sarv daraxti Sharq adabiyotida qadimdan baland bo'y, qaddi-qomati tik va go'zallik ramzi sifatida ishlatiladi. Jumladagi "bo'ston sarvi" ifodasi Farhodning tashqi ko'rinishi va ichki fazilatlarini birlashtirib, uni oddiy yigit emas, balki tabiat go'zalligi va sobitligiga qiyoslash orqali yuksak darajada ideallashtiradi. Shuningdek, "davrondan xazon mashaqqatini ko'rgan" birikmasi uning hayotiy sinov va qiyinchiliklardan o'tganini bildiradi. Metaforik tasvirda Farhod garchi ko'plab iztiroblarni boshdan kechirgan bo'lsa-da, sarvdek tik va adolatli inson sifatida gavdalantirilgan. Demak, *sarv* bu yerda nafaqat tashqi go'zallik, barkamollik, balki ruhiy barqarorlik, sobitqadamlik va ma'naviy ulug'vorlik timsoli sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu gapdagi "sarv" so'zining bosh ma'nosini Farhod bilan qiyoslasak, ularni birlashtirib turuvchi o'xshashlik aspekti tashqi ko'rinishga xos bo'lgan tik va navqiron qaddi-qomat ekanligini kuzatish mumkin.



Navoiy qahramon tasvirini ifodalashda *Daraxt – Inson* sohalararo moslashtirish modelidan foydalanilgan.

Navoiyga xos bo'lgan metaforalar va ularning tarjimasini tahlil qilar ekanmiz avvalo shuni ko'ramizki, shoirning poetik tasvirlari ko'pincha falsafiy mazmun, ruhiy kechinma va kosmik timsollar uyg'unligida yaratiladi.

Asliyatda: *“Xisrav ham bu ko'hna falakning unga qachondir qayg'u piyolasini tutishini anglardi. Umr piyolasi birdaniga bo'shab qolsa...”* kabi jumlar Navoiy poetikasining eng yorqin badiiy metaforalaridan biridir. Bu yerda “ko'hna falak” metaforasi taqdirning qadimiy, o'zgarmas va inson taqdirini belgilovchi kuch sifatida tasvirlanishiga xizmat qiladi. “Qayg'u piyolasi” esa inson boshiga tushadigan musibatning ichimlikka qiyoslanishi orqali ruhiy og'riqning ichki kechinma sifatida qabul qilinishini ifodalaydi. Shuningdek, “umr piyolasi bo'shab qolishi” metaforasi hayotning tugashi, umrning nihoyasiga yetishi kabi murakkab falsafiy tushunchani sodda, ammo chuqur ma'noli obraz orqali beradi. Ingliz tilidagi tarjimada (“this old world... would one day serve him a bowl of distress”, “the bowl of his life was suddenly drained”) ushbu metaforalar semantik jihatdan saqlangan bo'lsa-da, Navoiyga xos poetik ohang va Sharqona tasvirning badiiy nozikligi qisman yumshatilganini ko'rish mumkin. Shunga qaramay, tarjima metaforaning asosiy konseptual mazmunini – taqdirning muqarrarligi va inson umrining o'tkinchiligi haqidagi g'oyani – yetarli darajada qayta yaratishga muvaffaq bo'lgan. Bu misol Navoiy metaforalarining lingvistik va badiiy qatlamlari tarjimada qanday murakkablik tug'dirishini hamda ularni ekvivalent tarzda ifodalash uchun poetik kompensatsiya zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa

“Farhod va Shirin”dagi metafora tizimi til – tafakkur – madaniyat uchligi birligida ishlaydigan mukammal poetik mexanizmdir. U tushunchalarni bog'laydi, milliy obrazlarni faollashtiradi, qahramon psixologiyasini ochadi va matnning estetik qiymatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy Farhod and Shirin Translated by A'zam Abidov. Tbilisi-Tashkent. 2018 – 374 b.
2. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” nasriy bayon muallifi G'ofur G'ulom.T.: “Adabiyot va san'at”. 1975. –245 b.
3. Бабурина Е.В. Явление Интерференции В Создании И Переводе Метафоры (на материале англоязычных и русскоязычных художественных текстов): Дисс. ...канд. филол. наук. – Пермь, 2001. – С.47.



4. Bally Ch. *Traité de stylistique français*. 2nd edn. Genève: George. 1st edn. 1919 – P.16.
5. I.G'ofurov, O. M o 'minov, N.Qambarov. (2012) *Tarjima nazariyasi: Oliy o 'quv yurtlari uchun o 'quv qo 'llanma T.*: Tafakkur-Bo'stoni, 216 b.
6. Fazildinova Sevaraxon Nematovna. (2025). *The Ways And Methods Of Translating Similes In Alisher Navoi's Epic "Farhod Va Shirin"*. *American Journal of Philological Sciences*, 5(12), 85–89. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue12-23>
7. Fazildinova, S. (2025). *THE USE OF SIMILE, METAPHOR AND HYPERBOLE IN ALISHER NAVOI'S WORKS*. *B ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE* (T. 4, Выпуск 28, сс. 173–178). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15526221>
8. Fazildinova, S. N. (2022). *THE MATTERS OF TRANSLATING THE FIGURATIVE LANGUAGE DEVICES USED BY ALISHER NAVOI IN DESCRIPTION OF WORD, LANGUAGE AND SPEECH ETHICS*. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), 106-118.
9. Fazildinova Sevara Nematovna. (2021). *USING THE SIMILE IN THE CLASSICAL LITERATURES AND THE PROBLEMS OF TRANSLATING THEM FROM UZBEK INTO ENGLISH ON THE BASE OF "ALEXANDER'S WALL" BY ALISHER NAVOI*. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(11), 326–329. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/K3XGT>
10. Fazildinova Sevara Nematovna. (2020). *SOME LEXICAL FEATURES OF TRANSLATING BINOMIAL PAIRS FROM UZBEK INTO ENGLISH (ON THE MATERIAL OF "ALEXANDER'S WALL" BY ALISHER NAVOI)*. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 1(01), 85–94. Retrieved from <http://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/12>
11. Fazildinova, S. (2023, December). *BADIIY TARJIMADA TRANSFORMATSIYALAR TALQINI*. In *Fergana state university conference* (pp. 46-46).
12. Мукаррамов. М. *Ўзбек тилида ўхшатиш*. –Тошкент Фан. 1976 – Б
13. Newmark P. *A Textbook of Translation*. – Shanghai Foreign Languages Education Press, Prentice Hall, 1988.– P.104-113
14. Nematovna, F. S. (2022). *The Importance of Body Language as a Means of Non-Verbal Communication in Teaching Process*. In *International Conference: Problems and Scientific Solutions* (pp. 41-47).
15. Nematovna, F. S. (2022). *Alisher Navoiy Asarlarining Tarjimalari Tarixi*. *Miasto Przyszłości*, 30, 10-13.